

# **Uzbekistan Airways Dehlidagi SATTE-2024 sayyohlik ko'rgazmasida ishtirok etdi**

**2024 27 Fevral**

SATTE-2024 – Hindistondagi eng yirik sayyohlik ko'rgazmalaridan biri bo'lib, unda yirik turoperatorlar turli mamlakatlarning turizm va transport sohasi vakillari bilan aloqalar o'rnatadilar. Ko'rgazma 22-24 fevral kunlari bo'lib o'tdi va O'zbekiston Respublikasining milliy aviatashuvchisi stendi aviakompaniya delegatsiyasi tomonidan namoyish etildi.



Eslatib o'tamiz, Uzbekistan Airways Toshkentdan Dehliga muntazam ravishda 6 ta aviaqatnovni amalga oshiradi va bahor-yoz mavsumidan boshlab haftasiga 2 marotaba Toshkentdan Mumbayga parvozlarni tiklaydi.











